



## QUMQO‘RG‘ON TUMAN ERGONIMLARINING MORFEMIK XUSUSIYATLARI

*To‘xtayeva Sarvinoz*

*Termiz davlat universiteti talabasi*

*[sarvinoztuxtayeva04@gmail.com](mailto:sarvinoztuxtayeva04@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qumqo‘rg‘on tuman ergonimlarining morfemik xususiyatlari ko‘rib chiqildi hamda turlicha yasalish usullari tahlil qilindi. Har bir usullarga misollar keltirilib tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** ergonimlar, morfemika, affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, substantivatsiya, sintaktik, hududiy ergonimlar.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются морфологические особенности эргонимов Кумкурганского района и анализируются различные методы их образования. Приводятся и анализируются примеры каждого метода.

**Ключевые слова:** эргонимы, морфемика, аффиксация, композиция, семантика, субстантивация, синтаксические, территориальные эргонимы.

**Abstract.** This article examines the morphemic features of the ergonyms of the Kumkurgan district and analyzes various methods of formation. Examples of each method are given and analyzed.

**Keywords:** ergonyms, morphemics, affixation, composition, semantics, substantivation, syntactic, territorial ergonyms.

### **Kirish**

Bugungi globallashuv jarayonida tilshunoslikning onomastika sohasi, xususan ergonimlarni o‘rganish masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ergonimlar — turli korxonalar, tashkilotlar, savdo markazi, xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, xususiy firmalar va muassasalarga berilgan nomlar bo‘lib, ular



jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotini aks ettiradi. Ayniqsa, hududiy ergonimlarni tahlil qilish orqali ma'lum bir mintaqaning til xususiyatlari, milliy qadriyatlari, dunyoqarashi va zamonaviy tendensiyalarini aniqlash mumkin.

Qumqo'rg'on tumani ergonimlari ham o'zining morfemik tuzilishi bilan alohida e'tiborga loyiqdir. Tumandagi savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari nomlarida o'zbek tilining milliy birliklari bilan bir qatorda arab, fors-tojik, rus hamda ingliz tillariga oid unsurlar ham uchraydi. Bu holat esa hududda til qatlamlarining o'zaro integratsiyasi va zamonaviy nominatsiya jarayonlarining kuchayganini ko'rsatadi. Ergonimlarning morfemik tarkibini o'rganish orqali sodda, qo'shma, juft hamda affiksial usulda yasalgan nomlarning qo'llanish darajasi aniqlanadi.

Nomlash tarixi ishlab chiqarish rivojlanishi va raqobatning kuchayishi bilan boshlangan. Turli xil tovarlar orasida tovarlarni ajratib ko'rsatish kerak edi. Ilgari kompaniyalar o'z ta'sischilarining ismlarini olishgan, ularning familiyasi mahsulotning ma'lum bir sifatini kafolatlagan. Nomlash bazasi XIX asrning oxirida Amerikada iste'molchi uchun kurash keng ko'lamli miqyosni egallagan paytda qurilgan. Kasbiy faoliyat sohasi sifatida nomlash XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Tompson brend masalalariga bag'ishlangan, ularning sahifalarida muallif ismlarni yaratishga alohida e'tibor bergan<sup>1</sup>.

Ergonim (yunoncha "ergo" – mehnat, ish + "onim" – nom) — bu tashkilot, muassasa, korxonalar, firma, do'kon, restoran, bank, maktab, kasalxonalar va boshqa mehnat birlashmalarining xususiy nomini anglatadi<sup>2</sup>. Ular onomastika (nomshunoslik) fanining bir bo'limi bo'lib, bunda yuqorida aytilgan birlilarning lingvistik xususiyatlari o'rganiladi. Ergonimlar oddiy so'zlardan farqli o'laroq, atoqli otlar bo'lib, muayyan obyektни nomlaydi, undan ajratib turadi va ko'pincha reklama yoki axborot berish vazifasini bajaradi.

<sup>1</sup> O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlar. – M. Saparniyazova, J. O'rozov. – Toshkent – 12-b.

<sup>2</sup> Cyberleninka.ru



Boshqa atoqli otlar singari ergonimlar ham turli yo‘llar bilan hosil qilinadi. O‘zbek tili so‘z yasalishiga doir boy manbalarda uning quyidagi turlari farqlanadi:

- a) affiksatsiya;
- b) kompozitsiya;
- c) leksik semantik;
- d) fonetik.

Bundan tashqari, yangi leksemalar vujudga kelishining transpozitsiya, konversiya usullari borligi ham tegishli manbalarda qayd etiladi. “O‘zbek tili so‘z yasalishi” kitobi muallifi akademik A.Hojiyev o‘zbek tili so‘z yasalish usullari haqida so‘z yuritar ekan, so‘z yasalishi deganda, qanday usul bilan bo‘lsa ham yangi so‘z (leksema) hosil bo‘lishini ta’kidlaydi. Muallif so‘z yasalishining asosiy usullari deb ko‘pchilik tomonidan tan olinayotgan va lingvistik adabiyotlarda qayd etilayotgan usullar quyidagilar:

- 1) Semantik usul.
- 2) Fonetik usul.
- 3) Sintaktik-leksik usul.
- 4) Affiksatsiya usuli.
- 5) Kompozitsiya usuli.
- 6) Abbrevatsiya usuli, deya bayon qiladi”<sup>3</sup>

Ergonimlar asosan sifat, fe‘l, ravish,son, sifatdoshlar, yuklamalar va undov so‘zlar bilan ifodalanadi va shu sababdan ham yasalish usullari ham ularnikiga o‘xshash bo‘ladi. Ergonimlarning asosiy qismini sifat komponentli ergonimlar tashkil etadi. Ergonimlarni shakllantirishning har bir usulini alohida ko‘rib chiqqamiz. Ergonimlarning morfemik shakllanishda asosiy usullardan biri affiksatsiya hamda sintaktik usullar hisoblanadi.

### **1. Affiksatsiya usuli**

<sup>3</sup> A.Hojiyev O‘zbek tili so‘z yasalishi. Morfemika.derivatsiya. Morfologiya IIqism. – Qarshi 2005.284-b.



Soʻz asosiga qoʻshimcha qoʻshish orqali yangi soʻz yasalishi affiksatsiya usuli hisoblanadi. Oʻzbek tilida affiksatsiya usulidan soʻz yasashda keng foydalaniladi. Bu usul bilan yasalgan ergonimlar asosan oldindan mavjud boʻlgan soʻzlar hisoblanadi, ular orasida neologizmlar deyarli uchramaydi. Masalan, Elsevar (el+sevar) oʻquv markazi, kalitsoz(kalit +soz) ustaxonasi, Asr dorixonasi (dori+xona), bepul (be+pul) simkartalar doʻkoni, Goʻzallik (goʻzal+lik) saloni, farm- dorixona (dori+xona), Hamshiralik (hamshira+lik) kursi, zargarlik (zargsr+lik) doʻkoni va shu kabilar.

## 2. Sintaktik usul

Ikki va undan ortiq asosning qoʻshilishi va birikishi orqali yangi soʻz yasalishi sintaktik usul hisoblanadi. Bu usul orqali qoʻshma, juft va takror soʻzlar hosil qilinadi. Bu usulda yasalgan ergonimlarni bir necha guruhlariga boʻlib tahlil qilishimiz mumkin. Masalan, Ot+ot shakli: Umra ziyorati doʻkoni, Gilamlar dunyosi doʻkoni, Turon kafesi, Toʻmaris toʻyxonasi, Navbahor toʻyxonasi, Lochin sartaroshxonasi, Saodat saloni va shu kabilar.

Sifat+ot shakli: Arzon kolbasa mahsulotlari doʻkoni, Zakas somsa markazi, Tabiiy gullar doʻkoni, Bepul sim-kartalar doʻkoni, Arzon apteka, Qulay savdo doʻkoni, Asl dorixona, Asl burger, Sara urugʻlar doʻkoni va shu kabilar.

Son+ot shakli: 4 oʻgʻlon savdo majmuasi, 999 gold, 777dorixona,

Soʻzlarni yonma-yon qoʻllash orqali: beeline-uceel-mobi.uz mobil doʻkoni, Denov zakas somsa, Qumqoʻrgʻon Baraka savdo majmuasi va shu kabilar.

Asosni juftlash oqali: Farm-gold dorixonasi, EPA-VERO qurilish mollari doʻkoni, Oziq-ovqat doʻkoni va shu kabilar.

Asosni takrorlash orqali: Oh-oh oshxonasi va shu kabi ergonimlar.

Odatda, leksik soʻz yasalishi bilan semantik soʻz yasalishi oʻrtasida koʻpincha chegara boʻlmaydi. Bu shundan kelib chiqadiki, soʻz yasalishining mohiyati leksik va semantik jihatdan toʻla oydinlashmagan. Shuning uchun, har qanday holatda, biz soʻz shakllanishini alohida emas, balki guruhda izohlaymiz.



### 3. Substantivatsiya usuli:

Ergonimlarni shakllantirishning juda keng tarqalgan usullaridan biri bu turli xil soʻz turkumlarining ergonimlar toifasiga oʻtishi hisoblanadi va natijada ular otga aylanadi. Bu usul substantivatsiya deb ataladi. Oʻzbek tilshunosligida koʻp sonli ergonimlar aksar holatlarda sifatlar, feʼllar, sonlar, undov, taqlid, olmoshlarning otga koʻchishi natijasida hosil boʻladi. Bunday hosilalar substantivlar deb ataladi<sup>4</sup>. Masalan, Farovon binosi, Elvesar oʻquv markazi, Vatanparvar avtomaktabi, 777 dorixona, Aslzoda goʻzallik saloni va shu kabilar.

Substantivatsiya usulida hosil qilingan ergonimlarni ham bir-necha kichuk guruhlarga boʻlib oʻrganishimiz mumkin. Jumladan,

Feʼldan koʻchgan ergonimlar: Yuksalish oʻquv markazi, Moy almashtirish shaxobchasi va shu kabilar.

Sifatdan koʻchgan ergonimlar: Tabiiy gullar doʻkoni, Arzon apteka, Asl dorixona, Arzon kolbasa mahsulotlari doʻkoni va shu kabilar.

Sondan koʻchgan ergonimlar: 777 dorixona, 999 gold tilla doʻkoni, 24/7 Mannol yoqilgʻI quyish shahobchasi va shu kabilar.

Ravishdan koʻchgan ergonimlar: Arzon gilam yuvish shahobchasi.

Undov soʻzdan koʻchgan ergonimlar: Marhamat oshxonasi, Oh-ho kiyim doʻkoni va shu kabilar.

### 4. Leksik-semantik usul:

Leksik-semantik usul — til birliklarining maʼno taraqqiyoti natijasida yangi semantik mazmun kasb etishi orqali yangi birlik hosil qilish usulidir. Leksik-semantik usul orqali oddiy soʻzlar tashkilot yoki korxonona nomiga aylanishi mumkin. Bu usulda hosil qilingan ergonimlar quyidagicha tuzilishga ega boʻlishi mumkin:

Aniqlovchili birikma: Arzon dorixona, Asl dorixona, Bepul simkartalar doʻkoni, Tabiiy gullar doʻkoni, Shirin mantilar oshxonasi va boshqalar.

<sup>4</sup> F. Kultayeva- Surxondaryo viloyati ergonimlarining lingvomadaniy xususiyatlari – dissertatsiya ishi – 60-b.



Izohlovchili birikma: Abduvohid bobo oziq-ovqat do‘koni, Bahodir brat oshxonasi, Go‘zal-Dilrabo opa-singillar MCHJ va boshqalar.

Qaratqichli birikma: Xolida go‘zallik saloni, Umidaxonim shirinliklar do‘koni, Diyor oshxonasi va boshqalar.

Muvofiqlashtiruvchi birikmalar: Farm gold dorixonasi, Baby shop bolalar kiyim do‘koni, Shoh-sena marketi, Mashxura klinikasi va boshqalar.

Sonli birikmalar: 777 dorixona, 999 gold tilla do‘koni, 24/7 yoqilg‘i quyish shaxobchasi va boshqalar.

Ergonimlar tilning rivojlanishini aks ettiradi, xorijiy tillar ta‘sirini (inglizcha, ruscha elementlar) va milliy o‘ziga xoslikni ko‘rsatadi. Ular iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarning muhim belgisi hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida ergonimlar nisbatan yangi o‘rganilayotgan soha bo‘lib, hozirgi vaqtda ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

### **Xulosa**

Qumqo‘rg‘on tumani ergonimlarining morfemik tahlili hududdagi nomlash jarayonlari o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida ergonimlarning aksariyati sodda va qo‘shma shaklda yasalganligi, ularda milliy til birliklari bilan bir qatorda o‘zlashma qatlam elementlari ham faol qo‘llanilishi aniqlandi. Ayniqsa, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida inglizcha hamda ruscha komponentlardan foydalanish zamonaviy marketing va reklama ta‘siri bilan bog‘liqligi kuzatildi.

Shuningdek, ergonimlarning morfemik tarkibi hudud aholisi tafakkuri, milliy qadriyatlari va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim vosita ekanligi namoyon bo‘ldi. Ba‘zi nomlarda milliylikni ifodalovchi affiks va leksik birliklar ustun bo‘lsa, ayrimlarida xalqaro uslubga moyillik seziladi. Bu esa tilning doimiy rivojlanishi va ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Qumqo‘rg‘on tumani ergonimlarini morfemik jihatdan o‘rganish o‘zbek onomastikasi va so‘z yasalishi tizimini tadqiq etishda muhim ilmiy



manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida hududiy ergonimlarni lingvokulturologik, semantik hamda sotsiolingvistik yo'nalishlarda chuqurroq o'rganish uchun asos bo'la oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M. Saparniyazova, J. O'rozov. O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlar. Toshkent
2. A. Hojiyev. O'zbek tili so'z yasalishi. Morfemika.derivatsiya. Morfologiya II qism. Qarshi 2005
3. F. Kultayeva. Surxondaryo viloyati ergonimlarining lingvomadaniy xususiyatlari PhD darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi Termiz-2025